

Toshkentdagi Turin politexnika universitetining birinchi prorektori universitetning rektor vazifasini bajaruvchisi etib tayinlandi

O'zbekiston Respublikasi hukumatining (420-son 03.07.2020y.) qarori bilan Inoyatxodjaev Jamshid Shuxratullayevich Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetining rektor vazifasini bajaruvchi etib tayinlandi.

Eslatib o'tamiz, bundan oldin ushbu lavozimni Salomov O'ktam Raximovich egallab kelgan. Joriy yilning 1 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga (PQ-4762-son, 29.06.2020 y.) binoan u oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining birinchi o'rinbosari bo'lib tayinlandi.

Ushbu lavozimga tayinlanishidan oldin, Inoyatathodjaev Jamshid Shuxratullayevich 2016 yili Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti umumiy texnik fakulteti dekani lavozimida, 2017 yildan boshlab to hozirgi kungacha moliyaviy-iqtisodiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha birinchi prorektor lavozimida ishlab kelgan.